



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Abduraxmon Abduxalimov</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
<b>2. Омонулло Бўриев</b> СОҶИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
<b>3. Хайрия Буриева</b> ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
<b>4. Nodira Babadjanova</b> DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
<b>5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir,</b> OROL DENGIZINING PAYDO BO‘LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
<b>6. Дорошенко Татьяна</b> ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО ХХВВ.).....	42
<b>7. Axmedov Baxriddin</b> O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
<b>8. Akbarova Nigora</b> FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
<b>9. Nurmetov Ismoil</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
<b>10. Зарипов Жахонгир</b> ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ ХХ ВЕКА.....	71
<b>11. Polvanov Azim</b> TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
<b>12. Choriyeva Nargiza</b> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84



**Nurmetov Ismoil Alimbayevich,**  
PhD, Urganch davlat universiteti dotsenti,  
Ismoilnur1984@gmail.com

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILIY- HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN**

**For citation:** Ismoil A.Nurmetov. "FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN". Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498743>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ekologik siyosatning tashkiliy-huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllanishi tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy normalar hamda tabiatni muhofaza qilish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, atmosfera havosi, chiqindilar, ekologik ekspertiza va ekologik nazorat bo‘yicha qabul qilingan asosiy qonun hujjatlarining mazmuni va amaliy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish masalalari ham yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik siyosat, ekologik qonunchilik, tashkiliy-huquqiy asoslar, ekologik xavfsizlik, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza, jamoatchilik nazorati, iqlim o‘zgarishi.

---

**Нурметов Исмаил Алимбаевич,**  
доктор философии (PhD) по истории, доцент  
Ургенчского государственного университета,  
Ismoilnur1984@gmail.com

## **ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется поэтапное формирование организационно-правовых основ экологической политики Республики Узбекистан в период после обретения независимости. Рассматриваются конституционные нормы и ключевые законодательные акты, регулирующие охрану окружающей среды, рациональное использование водных и земельных ресурсов, охрану атмосферного воздуха, обращение с отходами, экологическую экспертизу и

экологический контроль. Также рассматриваются вопросы определения приоритетных направлений государственной политики в области охраны окружающей среды в условиях Нового Узбекистана, предотвращения нарушений законодательства в области охраны природы, внедрения эффективных механизмов их выявления и предотвращения, а также усиления личной ответственности государственных органов, руководителей хозяйствующих субъектов и граждан за санитарно-экологическое состояние населенных пунктов республики.

**Ключевые слова:** экологическая политика, экологическое законодательство, организационно-правовые основы, экологическая безопасность, экологический контроль, экологическая экспертиза, общественный контроль, изменение климата.

**Ismoil A. Nurmetov,**  
PhD, Associate Professor,  
Urgench State University  
ismoilnur1984@gmail.com

## "FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN"

### ABSTRACT

This article analyzes the step-by-step formation of the organizational and legal foundations of environmental policy in Uzbekistan after independence. It examines constitutional provisions and key legislative acts regulating environmental protection, rational use of water and land resources, air protection, waste management, environmental expertise, and environmental control. The issues of determining the priority areas of state policy in the field of environmental protection in the conditions of New Uzbekistan, the prevention of violations of legislation in the field of nature protection, the introduction of effective mechanisms for their detection and prevention, and strengthening the personal responsibility of state bodies, heads of economic entities and citizens for the sanitary and ecological condition of the republic's settlements are also covered.

**Index Terms:** environmental policy, environmental legislation, organizational and legal framework, environmental security, environmental control, environmental expertise, public oversight, climate change.

### 1. Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va tamoyillariga tayangan holda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini izchil yangilashni davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylantirdi. Bu jarayonda ekologik qonunchilik mamlakatda ekologik islohotlarning pirovard natijasini ta'minlovchi tayanch huquqiy zamin sifatida namoyon bo'ldi va uni muntazam takomillashtirish ekologik siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy munosabatlarning yangilanishi va bozor tamoyillariga o'tish sharoitida ekologik huquqiy bazani mustahkamlash zarurati kuchaydi. Natijada ekologiya sohasidagi asosiy prinsiplar eng avvalo Konstitutsiyaviy normalarda ifodasini topdi: fuqarolarning qulay ekologik muhitda yashash huquqi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyili hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati mustahkamlandi. Xususan, Konstitutsiyaning 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ularning davlat muhofazasida ekani belgilangan.

Konstitutsiyaviy tamoyillar asosida keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik xavfsizlik va nazorat bo'yicha 40 dan ortiq qonun hamda mingga yaqin qonunosti hujjatlar qabul qilinib, ekologik boshqaruvning keng qamrovli huquqiy tizimi shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik munosabatlar yoritilgan adabiyotlarda O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘lidagi davlat siyosati, ayniqsa bu yo‘ldagi xalqaro hamkorlik masalalari aks ettirilgan. Xususan, G.Abdullaeva, B.Alixonov, N.Ikramova, T.Tillyaev, R.Tursunova, S.Davletov va boshqalarning ilmiy ishlarida atrof-muhit muhofazasiga oid global konvensiyalar ijrosiga oid masalalar ham o‘z aksini topgan. Masalan, S.Davletovning ilmiy maqolasida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ekologiya va atrof-muhitni asrash yo‘lidagi davlat siyosatining muhim jihatlari yoritilgan [11].

## **2. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Maqolada normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish (qonunlar, kodekslar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari), tarixiy-taqqosiy yondashuv hamda institutsional o‘zgarishlarni davrlashtirish usullari qo‘llanildi. Tahlil Konstitutsiyaviy normalardan boshlab, sohaviy qonunchilikning (yer, suv, havo, chiqindi, bioresurslar, ekspertiza va nazorat) rivojlanish bosqichlarini ketma-ketlikda yoritishga qaratildi.

## **3. Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Ekologik siyosatning huquqiy “tayanch nuqtasi” Konstitutsiyada belgilangan normalar bo‘lib, ular keyingi qonun ijodkorligi uchun umumiy yo‘nalishni belgilab berdi. Ushbu asosda 1992-yilda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, atrof-muhitni muhofaza qilish munosabatlarini tartibga solishda bazaviy normativ hujjat darajasiga ko‘tarildi [2].

Qonunda tabiatni muhofaza qilishning maqsadlari sifatida inson salomatligi, ekologik muvozanat, biologik xilma-xillik va genetik fondni saqlash, noyob obyektlar va landshaftlarni asrash, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hamda tabiat obyektlari bilan bog‘liq madaniy merosni muhofaza qilish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Mazkur qonun tabiiy resurslarning umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va davlat muhofazasida bo‘lishi, shuningdek fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyojlari uchun tabiatdan umumiy foydalanishning bepul shakllari kabi qoidalarni mustahkamladi. Qonun normalarini zamon talablariga moslashtirish maqsadida o‘tgan yillar davomida unga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda sanitariya nazorati institutlari ham muhim o‘rin tutdi. 1992-yilda qabul qilingan “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, keyinchalik 2015-yilda “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan yangilandi [3]. Yangi qonun sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlar, sanitariya normalarini joriy etish, sanitariya madaniyatini oshirish, davlat nazorati va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarini davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida belgiladi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilish bo‘yicha asosiy kodifikatsiyalangan manba - Yer kodeksi hisoblanadi [4]. Unda yer umummilliy boylik ekani, hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko‘zlab ilmiy asoslangan tarzda foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash kabi vazifalar mustahkamlangan. Yer kodeksi qabul qilingach, sohani amaliy tartibga soluvchi qo‘shimcha me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari ham davlat siyosati e‘tiborida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tegishli hujjatlari ushbu yo‘nalishdagi tashkiliy choralarni faollashtirdi.

Suv resurslaridan foydalanish sohasida 1993-yilda “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib [5], suv munosabatlarini tartibga solish, aholi va xo‘jalik ehtiyojlari uchun suvdan samarali foydalanish, suvni ifloslanish va kamayishdan muhofaza qilish hamda suv obyektlari holatini yaxshilash kabi vazifalarni huquqiy jihatdan belgiladi. Qonunda suvning davlat mulki va umummilliy boylik ekani, undan samarali foydalanish va davlat muhofazasi prinsipi mustahkamlandi. Ichimlik suvi sifati bo‘yicha sanitariya talablari va davlat standartlariga mos obyektlarni ajratish, aholi ehtiyojlarini ustuvor ta‘minlash kabi normalar ham aniq ifoda etildi.

Suv xo‘jaligi boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha hukumat qarorlari, davlat suv kadastrini yuritish tartiblari, gidrotexnika inshootlari xavfsizligi hamda irrigatsiya tizimlarini havza tamoyili asosida boshqarish kabi hujjatlar suv siyosatining amaliy mexanizmlarini mustahkamladi.

Yer osti resurslaridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinib, mineral xom ashyo va yer osti suvlari ehtiyojlarini qondirishda samaradorlik, ekologik talablar, davlat va fuqarolar manfaatlarini muvozanatli himoya qilish kabi vazifalar belgilandi [6]. Qonunda foydali qazilmalarni qazib olishni loyihalashda ekologik dalil-asoslarni ko'rsatish, atrof-muhitga ta'sirni baholash, radioaktiv va zararli chiqindilarni qayta ishlash hamda ifloslanishning oldini olish kabi talablar mustahkamlandi. Geologik boshqaruv tizimida esa foydali qazilmalar zahiralarni davlat ekspertizasidan o'tkazish va tasdiqlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadida 2018-yilda tegishli nizom tasdiqlandi.

O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo'yicha 1997-yilda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" [7] hamda "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi [8] qonunlar qabul qilindi. Ular biologik resurslarni asrash, genetik fondni saqlash, takror ko'paytirish, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu sohadagi huquq va majburiyatlarini belgilash orqali ekologik siyosatning muhim tarmoq yo'nalishini shakllantirdi. Mazkur qonunlar keyingi yillarda yangi tahrirlar va o'zgartirishlar bilan takomillashtirildi.

Tabiiy hududlarni alohida rejimda muhofaza qilish masalasida 2004-yilda "Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, tipik va noyob obyektlar, o'simlik va hayvonlarning irsiy fondini saqlash, monitoring, ekologik ma'rifat va tarbiyani kuchaytirish kabi vazifalarni huquqiy jihatdan belgiladi. Qonunda muhofaza qilinadigan hududlarning toifalari ham aniq tasniflandi.

O'rmon resurslari bo'yicha 1999-yilda "O'rmon to'g'risida"gi Qonun o'rmon fondi, davlat boshqaruvi vakolatlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, o'rmon kadastri va javobgarlik masalalarini tizimli tartibga soldi. Yangi obyektlarni joylashtirish va texnologiyalarni joriy etishda o'rmonlarni muhofaza qilish va takror tiklash choralari ta'minlanishi shartligi ham mustahkamlandi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish yo'nalishida 1996-yilda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, atmosfera havosi umummilliy boylik ekani va davlat muhofazasida bo'lishi, shuningdek fuqarolarning hayot va sog'liq uchun qulay havo muhitiga ega bo'lish huquqi hamda axborot olish va zarar undirish kabi huquqlarini mustahkamladi [9].

Sohadagi ekologik munosabatlarni tartibga solish jarayonida 2000-yilda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun uzoq yillar davomida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning markaziy huquqiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qildi. 2025-yilda "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, ekologik qaror qabul qilish jarayonlari yangicha yondashuvlar bilan qayta tartibga solindi [10]. Yangi tartib ekologik talablar muvofiqligini qaror qabul qilishdan oldingi bosqichlarda aniqlash, ekologik xavflilik darajasini baholash, salbiy ta'sirning oldini olish va kamaytirish hamda rejalashtirilgan chora-tadbirlarning yetarililigini belgilash kabi yo'nalishlarni qamrab oldi. Shuningdek, strategik reja va davlat dasturlarini ekologik jihatdan baholash instituti huquqiy maydonga olib kirilganini ta'kidlash mumkin.

2013-yilda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, ekologik nazorat obyektlari sifatida yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi manbalar va ekologik xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari belgilandi. Qonun ekologik nazorat tizimiga jamoatchilikni jalb qilish, NNT va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish uchun huquqiy imkoniyatlar yaratdi.

Ma'lumki, chiqindilarni boshqarish yo'nalishida 2002-yilda "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, chiqindilarning aholi hayoti va sog'lig'iga hamda atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindi hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan oqilona foydalanish vazifalarini belgiladi. Qonunda chiqindilarni saqlash va ko'mish bo'yicha sanitariya hamda ekologik xavfsizlik talablari, shuningdek qayta ishlash texnologiyasi mavjud bo'lgan chiqindilarni ko'mishga yo'l qo'yilmasligi kabi qoidalar ham mustahkamlandi.

Jamoatchilik nazoratini umumiy darajada mustahkamlash maqsadida 2018-yilda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, nazorat obyektlari doirasi kengaydi va

davlat organlarining fuqarolik jamiyati bilan hamkorligi uchun qo‘shimcha huquqiy sharoit yaratildi.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi [11]. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi doirasida bir qator ishlar bajarilmoqda. Xususan, Orol dengizining qurigan tubining O‘zbekistondagi qismida cho‘l o‘simliklaridan “yashil qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlari barpo etish, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ham har yili 200 million dona daraxt va buta ko‘chatlarining ekilishi shular jumlasidan. 2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi “yashil iqtisodiyot”, “yashil” energetika tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha yirik loyihalar izchil tatbiq etilmoqda [12].

2023-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatda ekologik siyosatning konstitutsiyaviy asoslarini tubdan kuchaytirgan muhim huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, Muqaddimada davlatning “bebaho tabiiy boyliklarni ko‘paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash” majburiyati alohida ta’kidlanib, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi milliy taraqqiyotning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mustahkamlandi [1].

Yangi Konstitutsiyaning IX bobida “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar” alohida bo‘lim sifatida ajratilib, 49-modda orqali har bir shaxsning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish, uning holati to‘g‘risida ishonchli axborot olish huquqi konstitutsiyaviy darajada kafolatlandi. Mazkur modda davlat zimmasiga barqaror rivojlanish prinsipi asosida atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha aniq majburiyatlar yukladi. Alohida e‘tiborli jihat shundaki, Konstitutsiyaning 62-moddasida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish burchi mustahkamlandi. Bu normaning joriy etilishi ekologik mas‘uliyatni faqat davlat organlari emas, balki jamiyat va har bir fuqaro zimmasiga yuklashga qaratilgan yangi huquqiy yondashuvni ifodalaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada Orolbo‘yi mintaqasini muhofaza qilish va tiklash bo‘yicha davlatning alohida majburiyatlari qayd etilib, ekologik inqiroz hududlariga nisbatan differensial davlat siyosati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu holat O‘zbekiston ekologik siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilgan va hududiy muammolarga moslashgan xarakter kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Ekologik boshqaruv tizimidagi muhim institutsional o‘zgarishlardan biri 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmon bilan bog‘liq bo‘lib, u ekologiya va turizm sohalarida davlat boshqaruvini qayta tashkil etishga qaratildi. Farmonga muvofiq Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tugatilib, uning negizida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi yagona vakolatli organ sifatida tashkil etildi, Turizm qo‘mitasi esa mustaqil davlat organiga aylantirildi. Bu qayta tuzilma iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish va “yashil” siyosat yo‘nalishlarida boshqaruvning yagona markazlashgan mexanizmini kuchaytirish, shuningdek “Yashil makon”, “Toza havo”, “Chiqindidan holi hudud” kabi umumrespublika loyihalarini tizimli yuritish uchun tashkiliy-huquqiy asos yaratdi.

#### **4. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik siyosatning tashkiliy-huquqiy asoslari avvalo Konstitutsiyaviy tamoyillar (umummilliy boylik, oqilona foydalanish, davlat muhofazasi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari) negizida shakllangan. Keyingi bosqichda tarmoq qonunchiligi (tabiatni muhofaza qilish, suv, yer, havo, o‘rmon, chiqindi, bioresurslar) orqali ekologik boshqaruvni tartibga solish mexanizmlari kuchaydi

So‘nggi yillarda ekologik nazorat va jamoatchilik nazoratiga doir huquqiy normalar fuqarolik jamiyati institutlarini ekologik muammolar yechimiga kengroq jalb etish uchun zamin yaratdi. Jamoatchilik nazorati institutining huquqiy mustahkamlanishi ekologik siyosatda ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolik ishtirokini kengaytirish omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik boshqaruvdagi institutsional o'zgarishlar, tizimning tezkorligi hamda mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ekologik boshqaruvning zamonaviy, markazlashgan va protsessual tizimga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

### Iqtiboslar/Сноски /References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992). // www.lex.uz. Law of the Republic of Uzbekistan. "On Nature Protection" (1992). // www.lex.uz
- 3.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida" (2015-yil 26-avgust, O'RQ-393). // www.lex.uz. Law of the Republic of Uzbekistan. "On Sanitary and Epidemiological Well-being of the Population" (August 26, 2015, O'RQ-393). // www.lex.uz
- 4.O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi (1998). // www.lex.uz Land Code of the Republic of Uzbekistan (1998). // www.lex.uz
- 5.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993-yil 6-may). // www.lex.uz Law of the Republic of Uzbekistan. "On Water and Water Use" (May 6, 1993). // www.lex.uz
- 6.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Yer osti boyliklari to'g'risida" (2002-yil 13-dekabr). // www.lex.uz. Law of the Republic of Uzbekistan. "On Subsoil Resources" (December 13, 2002). // www.lex.uz
- 7."O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishi to'g'risida"gi qonun. – Toshkent, Xalq so'zi gazetasi, 1998-yil 9-yanvar, №6 (1787). Law "On the Protection and Use of Flora". – Tashkent, Xalq So'zi Newspaper, January 9, 1998, No. 6 (1787).
- 8."Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishi to'g'risida"gi 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan qonun. – Toshkent, Xalq so'zi gazetasi, 1998-yil 13-yanvar, №8 (1789). Law "On the Protection and Use of Fauna" adopted on December 26, 1997. – Tashkent, Xalq So'zi Newspaper, January 13, 1998, No. 8 (1789).
- 9.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996-yil 27-dekabr). // www.lex.uz. Law of the Republic of Uzbekistan. "On the Protection of Atmospheric Air" (December 27, 1996). // www.lex.uz
- 10.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida" (2025-yil 24-fevral, O'RQ-1036). Law of the Republic of Uzbekistan. "On Ecological Expertise, Environmental Impact Assessment and Strategic Environmental Assessment" (February 24, 2025, ZRQ-1036).
- 11.Davletov S.R. Environmental issues in Uzbekistan at the modern stage of development // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 Issue 5, May 2020. P. 1775-1780.
- 12.Gafforov X. Ekologik barqarorlikni ta'minlashda mas'ullik va faollik zarur. 05.06.2024. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/2074>. Gafforov X. Responsibility and activity are necessary in ensuring environmental sustainability. 05.06.2024. <https://parliament.gov.uz/oz/articles/2074>

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].